

OILADAGI NIZOLI VAZIYATLARNI BOLA PSIXIKASIGA TASIRI.

**ADPI Pedagogika va Psixologiya kafedrası o‘qıtuvchısı
Abdulmajjidova Mahdiyona Dilmurodjon qızı
ADPI 1-bosqıch talabası Ro‘ziyeva Nozıma**

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi oilalarda turli nizoli vaziyatlarning o‘shib, shakllanib kelayotgan bolalarning psixikasiga salbiy ta’siri haqida so‘z boradi. Bugungi kunda ajrimlarning ko‘paygani yoshlarni oila haqidagi tasavvurlarining to‘la shakllanmagani oilaning muqaddas ekani, farzand uning taqdiri haqida ota-ona birdek javobgarligi er-xotin birdek

Kalit so‘z: nizo, psixika, rivojlanish, ontogenez, to‘liq noto‘liq oila, ruhiy tarbiya, bola “men”i.

“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin”. Shavkat Mirziyoyev

Darhaqiqat, oila bu vatandir, unda kelajak avlod uchun yetuk farzandlarni tarbiyalash esa eng oliy burch.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, butun organizm o‘z faoliyatini maqsadga muvoffiq ravishda amalga oshirishda har bir hujayraning munosib o‘rni bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana hsu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini taminlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasining yangi oila kodeksi Oliy majlisning 1998-yil 30-apreldagi Qarori qabul qilindi va 1998-yil 1-sentabrdan amalga kiritildi.[1.-102-103b].

Oilani turlicha tasniflashimiz mumkin. Misol uchun ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra oila turlar:

- 1) Xizmatchilar oilasi
- 2) Dehqonlar oilasi
- 3) Aralash tipdagi oila
- 4) Ziyolilar oilasi
- 5) Ishchilar oilasi

Oilaning to‘liqligiga ko‘ra turlari:

- 1) To‘liq oila
- 2) Noto‘liq oila
- 3) Qayta tuzilgan oila (ikkinchi nikoh)

Oilaning bo‘g‘inlar soniga ko‘ra turlari:

- 1) Nuklear oila – Ota-onalar va bolalardan iborat bo‘lgan oila
- 2) Kop bo‘g‘inli oila – Ikki va undan ortiq avloddan iborat birga yashovchi oila

a’zolar

Oilaning bolalar soniga ko‘ra turlari:

- 1) Farzandsiz oilalar
- 2) Bir bolali oilalar
- 3) Ikki bolali oilalar
- 4) 3-4 bolali oilalar
- 5) 5 va undan ortiq bolali oilalar [2.42-b].

Yuqorida ko‘rib o‘tgan jarayonlarning hammasi oilaning turlaridir. Hozirgi kunda ham oilalar aynan mana shu faoliyatlar bilan turlanadi yani bir biridan farqlanadi. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan oilaning to‘liqligiga ko‘ra turi, ya’ni to‘liq, noto‘liq hamda qayta tuzilgan oila (ikkinchi nikoh) holatlari bola psixikasiga o‘z tasirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Shuning uchun

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

ham bugungi kunda to’liq oila turiga kiruvchi oilalar sonini ko‘paytirishimiz va yoshlarimizni kelajakda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz joizdir.

Shu bilan birgalikda oilaning bir qancha vazifalari ham mavjud. Bular:

- 1) Iqtisodiy;
- 2) Reproduktiv;
- 3) Tarbiyaviy;
- 4) Rekreativ;
- 5) Kommunikativ;
- 6) Regulyativ(boshqaruv);
- 7) Feliotsitologik [2.48-b].

Shularning ichidan biz ko‘rib chiqadigan vazifa - bu tarbiyaviy vazifadir.

Bolaning aqliy , jismoniy , axloqiy , estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo‘yish bilan cheklanmasdan , balki uning so‘nggi g‘ishti qo‘yilgungacha javobgardir. Ota-ona - san’atkor , bola – san’at asari tarbiya jarayoni esa san’atning o‘zidir. Oilaning tarbiyaviy vazifasi yo‘nalishlari:

- 1) Aqliy tarbiya
- 2) Jismoniy tarbiya
- 3) Axloqiy tarbiya
- 4) Madaniy tarbiya
- 5) Diniy tarbiya
- 6) Miliy urf – odatlarimizga asoslangan tarbiya
- 7) Jamiyatning siyosiy-g‘oyaviy dunyoqarashi shakllangan komil fuqarosin tarbiyalash
- 8) Komil inson tarbiyasi
- 9) Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya
- 10) Estetik tarbiya
- 11) Ma’naviy tarbiya [2.53-b].

Oilada aynan shunday ta’lim tarbiya takomillashgan bo‘lishi kerak. Chunki bularning barchasi bola psixikasiga tasir etuvchi omillar hisoblanadi. Buni biz quyidagi jumladan ham bilsak bo‘ladi : “ Oila va maktab tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsning shakllanishida muxim ahamiyatga ega. Uzoq muddat davomida beriladigan ijtimoiy ta’lim tarbiya bolaning butun psixik taraqqiyotiga , unda shaxsiy psixologik hislatlarning tarkib topishiga ta’sir qilmay qolmaydi”[4.76-b]. Afsuski bunday omillardan tashqari salbiy xususiyatga ega bo‘lgan omillar ham mavjud.

Agar oilada tarbiyaviy muhit rivojlanmasa shundagina salbiy muhit vujudga keladi. Bu albatta oiladagi tarbiyaviy ahamiyatning yaxshi emasligi , ya’ni ota-onaning bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishini izdan chiqishidir. Oilada bo‘ladigan janjallar , ota-ona o‘rtasida vujudga keladigan nizolar bolaning psixikasida katta o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Bolalarda uchraydigan nevroz kasalligining ham asosiy sababi oiladagi janjallar , ota-onaning bolaga nisbatan munosabati hisoblanadi. Bolaning ulg‘ayishida ota-onaning o‘rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Bola ayni rivojlanish paytida har qanday o‘zgarishga juda tasirchan bo‘lib qoladi. Bolaning ulg‘ayish jarayonida unga iloji boricha faqat ijobiy holatda bo‘lgan jarayonlarnigina ko‘rsatish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari o‘smirlik paytida ham bolalarda bir qancha o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu o‘zgarishlar salbiy va ijobiy bo‘lishi mumkin , chunki ayni shu davrda o‘smirlar bolalik davridan katta hayotga o‘tish arafasida bo‘ladi. Bu davrda quyidagi bo‘ladigan hodisalar ya’ni so‘zga kirmaslik , o‘jarlik , tajanglik , o‘z kamchiliklarini tan olmaslik , urushqoqlik kabi hodisalar hosdir [3.6-b]. Shuning uchun bu jarayonda ham oilaviy muhitning o‘rni , ota-onaning bolaga nisbata munosabati katta ro‘l o‘ynaydi.

O‘smir yoshida bo‘lgan bolalarda asosan tez jahl chiqish , o‘ziga etiborni qaratish holatlari ko‘p uchraydi. Bundan tashqari bu yoshdagi bolalarda alkagol , narkotik moddalarga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Ayni shu davrda ota-onadan bolaga nisbatan bo‘lgan tarbiya va nazoratning kuchayishi talab etiladi. Ota-ona tarafidan aytilgan ozgina nasihat ham bu yoshdagi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bolalarga salbiy tasir ko’rsatishi mumkin. Shuning uchun ota-ona har qanday vaziyatda o’zini farzandlariga namuna qilib ko’rsatish kerak. Oilada qancha nizoli vaziyatlar bo’lsa, bu shuncha bola psixikasiga o’zining salbiy tasirini ko’rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu holat turli xil ruhiy kasalliklarni keltirib chiqarsa, maktab yoshidagi va ayni o’smirlik yoshidagi bolalarda esa turli yomon illatlarga qo’shilib, tarbiyasining buzilishiga olib keladi.

Xulosa: Bir so’z bilan aytganda bolaning rivojlanishi, uning atrofdagilar bilan munosabati, jamoat joyida o’zini tuta bilishi, kelajakda vatan uchun fidoiy inson bo’lib yetishishi uchun oilaviy muhitni sof holatda tutish kerak. Oilada bo’ladigon ozginagina kelishmovchilik ham bola psixikasiga o’z tasir kuchini ko’rsatmay qo’ymaydi. Shuning uchun ham oiladagi janjallarni bartaraf etishimiz va farzandlarni to’g’ri va sog’lom bo’lgan muhitda o’stirishimiz kerak. Zero farzandlarimiz kelajak avlodning poydevoridir. Ularning qancha yaxshi muhitda tarbiyalasak kelajak avlod uchun shuncha barkamol inson bo’lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1) “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent
- 2) Professor G.B. Shoumarov tahriri ostida “Oila psixologiyasi”, “Sharq” nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2010. 3) Z.Nishanova, D.Abdullayeva, G.Baykunosova “Osmirlik davri psixodiagnostikasi va psixoreksiyasi”, Toshkent-2015.
- 4) Jalilova.S.X. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”, “Faylasuflar” nashriyoti Toshkent-2017.